

TASAVVUR - FALSAFIY TAFAKKURNING REFLEKTIV QUVVATI VA SEMIOGENEZ ALGORITMI SIFATIDA



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-24-285-294>

Bobokulov Abror Abdug’ani o’g’li
TDIU falsafa kafedrasi katta o’qituvchisi
Falsafa doktori Phd

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola inson tafakkurining falsafiy va gnoseologik asoslarini tahlil qilib, tasavvurni reflektiv tafakkurning yadro funksiyasi va semiogenez algoritmining asosiy elementi sifatida keltiriladi. Unda inson tafakkurining o’zini o’zi anglashga qaratilgan reflektiv qobiliyatini shaxsiy identifikatsiya, bilish chegaralari va mavjudlikni negatsiya qilish orqali tahlil qiladi. Refleksiya orqali yaratilgan binar fikrlash strukturası (“men” – “men emas”) tasavvurni semantik jihatdan shakllantirish mexanizmini belgilaydi. Maqolada dekart, Kant, Haydeger, Sartr, Sossyur, Derrida va Deleuze kabi faylasuflarning qarashlari asosida inson ongingin o’z-o’zini tahlil qilish, yo’qlikni tasavvur qilish va identitetni inkor orqali shakllantirish mexanizmlari chuqur yoritilgan. Semiogenez jarayoni reflektiv tafakkur yordamida yuzaga keluvchi ontologik negatsiya asosida belgilar, nomlar va yangi tushunchalar tizimini yaratishni ifodalaydi.

Kalit so‘zlar: tasavvur, reflektiv tafakkur, semiogenez, identifikatsiya, ontologik negatsiya, falsafiy tafakkur, gnoseologiya, binar tafakkur, til va belgi tizimi, sun’iy intellekt.

ABSTRACT

This article analyzes the philosophical and gnoseological foundations of human thinking, presenting imagination as the core function of reflective thought and a fundamental component of the semiogenesis algorithm. It examines the human mind’s capacity for self-awareness through reflective cognition, focusing on personal identification, the boundaries of knowledge, and the process of ontological negation. The binary thinking structure (“I” – “not-I”) formed through reflection is identified as a mechanism for semantically shaping imagination. Drawing on the philosophical perspectives of Descartes, Kant, Heidegger, Sartre, Saussure, Derrida, and Deleuze, the article provides an in-depth exploration of how the mind engages in self-analysis, conceptualizes nothingness, and constructs identity through negation. The process of

semiogenesis is portrayed as the creation of symbols, names, and new concepts based on ontological negation initiated by reflective thought.

Keywords: *imagination, reflective thinking, semiogenesis, identification, ontological negation, philosophical cognition, gnoseology, binary thinking, language and sign system, artificial intelligence.*

KIRISH

Inson tug'ilishidanoq tashqi dunyo bilan aloqaga kirishar ekan barcha narsalarning nomlarini o'rganadi. Tabiat, insonlar va narsalarning ko'rinishiga qarab ularni turlarga ajratadi(klassifikatsiya qiladi). Umumiy, o'xshash va farqli jihatlardagi kategoriyalashtirish va guruhlashtirish inson dunyoqarashini belgilashi bilan birga insonning o'zini ham tashkil qilib shakllantiradi. Shaxsiyatning shakllanishi (identifikatsiya) yalpi (total) yoki individual (o'ta shaxsiy) tarzda kechishi mumkin. Taqlidiy, ehtiyojlarni qondirish yoki ibridoib ehtiyojlar tugab ma'anaviy ehtiyojlar va tizimlar shakllanishining ilk bosqichidayoq identlikni belgilashga ehtiyoj tug'iladi. Ushbu identlik hammaga "men kimman?", "yashashimdan maqsad nima?", "boshqalardan qanday farqim bor?" savollarni berishni zarurat qiladi. Identlikni aniq belgilash keyingi tanlovlarni oqilona belgilash va tanlash uchun juda muhim xisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Identlikni belgilash jarayoni dastlab falsafiy hisoblangan reflektiv tafakkur orqali shakllangan. Reflektiv tafakkur bu insonning o'ziga va ichki dunyosiga qaratilgan tafakkuri xisoblanadi. Reflektiv tafakkur birinchi o'rinda insonni o'ziga qaratilgan bo'lib, o'zini bilishga, o'zini boshqa narsalardan farqlashga va hattoki o'zini o'zi inkor qilishga qaratilgan. Reflektiv tafakkur har qanday pozitsiyaga boshqa pozitsiyadan turib fikr bildira olish va tanqid qilash olishni o'z ichiga oladi. Lekin asosan u ichki anglashga qaratilgan bo'lib, ko'pincha u hamma narsaga yuqorida va ziddi bilan munosabat bildirish xisoblanadi. Dekart tilida o'zini refleksiyalash: "fikrlayapmanmi demak mavjudman" singari yangraydi. Ya'ni mavjudlik nima, deyishsa fikrlayotganim bu mening mavjudligim deya identlikni belgilash xisoblanadi. Kant qarashlari ko'ra: "biladigan va bilmaydigan narsa va maydonlarimizni belgilash" bu ichki refliksiya hisoblanadi. Ya'ni "men va olam nima o'zi" degan savolga aniq chegara qo'yish, bilish mumkin va mumkin bo'limgan, "men" va "men bo'limgan" tizimlarini xosil qilish orqali amalgalashadi. Fan, falsafa va mantiq ilmlarining markaziy rivojlanish nuqtasi sifatida o'z – o'zini refleksiyalash, ichkaridan identifikatsiya qilishni tahminiy belgilashimiz mumkin. Inson o'zini anglashga bo'lgan dastlabki ehtiyoji uning

aqliy konstruksiyasidagi ma'lumotlarni shartli ravishda, men va men emasga ajratadi.

“Jean-Paul Sartre’ning mavjudlik va ong haqidagi konsepsiyasiga ko’ra, ong – bu “yo’qlik kirituvchi mavjudlik”dir. U har doim mavjud narsalarga qarshi masofa yaratadi, ya’ni u: “men bu emasman” deb ayta oladi. Bu rad etish esa, uning erkinligini va o’zligini anglash aktini tashkil etadi”¹. Ushbu fikrga ko’ra ong yagona identifikatsiyaga moslashmaydi, u har doim o’zini ayni paytdagi holatidan boshqacha tasavvur etadi. Ayni damdagi o’z holatini inkor etish bu shaxsiyatni belgilaydi. Ushbu jarayon cheksiz davom etmasada, tafakkur ko’lamiga ko’ra rad etuvchi akt sifatida mavjud bo’lishda davom etadi.

Haydegger ham inson(dasein) va borliq(sein)ning kesishuvini tafakkurning shakllanishi sifatida ta’kidlaydi. Dasein o’zini bilish uchun hamma narsaga so’roq beradi. Mavjudlilikning o’zi nima, dasein (inson) mavjudligi sein(borliq) mavjudligidan qanday farq qiladi. Bu tarzdagi tafakkur shakllanishini Haydegger keltirib o’tadi.

Dunyoni “men” va “men emas”ga ajratishdagi binar konstruksiya keyinchalik, borliqni semiotik belgilashda ham asosiy vosita bo’lgan bo’lishi mumkin.

Borliqni semiotik belgilash bu insonni qurshab turgan butun olam yoki tashqarini belgilar orqali tushunish xisoblanadi. Belgilar va belgilar tizimlari orqali so’zlar shakllanadi. So’zlar esa borliqdagi real narsalarning inson tomonidan nom berish uchun ishlataligani. Biz har doim kimadir nimanidir tushuntirmoqchi bo’lsak buni so’z va belgilarsiz tushuntirishimiz mumkin emas. Borliq va undagi jarayonlar inson ongiga so’zlar orqali joylashadi. “Borliq nomlanmasdan turib ongda mavjud bo’la olmaydi”².

Masalan:

Daraxt – bu biologik mavjudot (ontologik real narsa);

“Daraxt” so’zi – bu uni anglatadigan **belgi** (semiotik konstruksiya).

Tildagi so’zlar, biz bilim deya atayotgan tizim va hattoki mantiqning o’zi ham ijtimoiy konvensional paradigmalar xisoblanadi. Konvensionallik shuningdek konvensional tizimlar bu insonlar tomonidan kelishuvga asoslangan va boshqa optimal muqobili yo’q ilmiy tizim xisoblanadi.

Borliq belgi sifatida tushunilganda, u quyidagi gnoseologik oqibatlarga ega bo’ladi:

¹ https://archive.org/details/BeingAndNothingness_201606/page/n5/mode/2up

² Lotman, Y. M. (2010). *Culture and Explosion* (W. Clark, Trans.). Walter de Gruyter. ISBN: 978-3110218466.

- Subyektivlashtiriladi – chunki u til orqali anglanadi, ya’ni inson ongidan o’tadi;
- Konvensiyalashadi – ya’ni ijtimoiy kelishuvga bog‘lanadi (bir jamiyatda “halol”, boshqasida “harom”);
- Dinamik xarakter kasb etadi – til o‘zgarishi bilan borliq haqidagi tasavvurlar ham o‘zgaradi (masalan, “quldarlik” – avval ijtimoiy nizom, hozirda jinoyat).

NATIJALAR

Semiogenezning rivojlanishi, ya’ni so’zlarning paydo bo’lishi va borliqni simvollar orqali ifoda etishning optimallashuvi inson tafakkuridagi konstruksiyalarda bilimlarning dinamikasini xosil qiladi. Refleksiyadagi “men” va “men emas” algoritmi binar fikrlash qolipi(shabloni)ni shakllantiradi va semiogenez jarayoni kelajak uchun binar oppozitsiyalarni yoki turli alternativlarni shakllantiradi. Ushbu alternativlar subyektiv anglangan mantiqqa ko’ra real dunyoga mos kelmaydi, unda hattoki real dunyoda mavjud bo’lmagan tizimlar ham shakllanishi mumkin. Ko’plab qarama-qarshi tushunchalar tabiatda tayyor mavjud emas, balki inson tafakkuri va til orqali nisbiy tarzda konstruktiv yo’l bilan shakllantiriladi.

“Semiogenez tafakkurning asosiy konstruksiyalarini shakllantiradi — Semiogenez — ya’ni yangi belgilar va simvolik tizimlarning paydo bo’lishi — inson agentligi va tafakkur evolyutsiyasining markazida turadi. Har bir yangi semiotik daraja ongli tafakkurning murakkablashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon refleksiya va niyatlichkeit (intentionality) orqali shakllanadi”³.

Masalan:

- Issiq va sovuq: Fiziologik va fizika nuqtai nazaridan bu harorat gradientining ijobiy yoki salbiy yo‘nalishidir. Ya’ni, sovuqlik bu energiyaning kamligi, issiqlik esa energiya darajasining yuqoriligi. Lekin biz bu ikki nuqtani til va tajriba orqali “ikki qarama-qarshi sifat” sifatida belgilaymiz.

- Yorug‘lik va qorong‘ilik: Fizik jihatdan faqat yorug‘lik mavjud (ya’ni fotonlar harakati), qorong‘ilik esa — yorug‘lik yo‘qligi.

Bu shuni ko‘rsatadiki, zidliklar ontologik emas, semiotik va gnoseologik konstruksiyalardir. Tafakkurning reflektiv tabiati sababli, inson ushbu tushunchalarning negatsiyasini, ya’ni real olamda mavjud bo’lmagan, ammo mantiqan asosli alternativ shakllarini yaratishga ham qodir.

³ Sharov, A., & Tønnessen, M. (2021). Semiogenesis. Biosemiotics. https://doi.org/10.1007/978-3-030-89484-9_8.

Sartr odatda “men” ni ya’ni shaxsiyatni men emaslardan kelib chiqib belgilagani kabi narsalar haqidagi tushunchalar ham ko’pincha zidlaridan farqlash uchun paydo bo’ladi.

Ferdinand de Sossyur til tizimida belgilar o‘z-o‘zidan mustaqil ma’noga ega emasligini, balki ular boshqa belgilar bilan bo‘lgan farqlari orqali aniqlanishini ta’kidlaydi. Masalan, “issiq” so‘zi “sovuuq” mavjud bo‘lganida ma’no kasb etadi; agar “sovuuq” tushunchasi bo‘lmasa, “issiq”ning ma’nosi noaniq bo‘lib qoladi.

Derrida ham shunga yaqin fikr bildirib: “Tushunchaning o‘zi mavjud emas, u boshqalardan farqlanish orqali “paydo bo‘ladi”⁴ deya ta’kidlaydi. Demak, xosil bo‘lgan belgi, tushuncha yoki identlik o‘zining inkori orqali tushuniladi. Belgilar inkorida yashaydi. Yo’qlikni tasavvur qilish “borliq”ni bilmasdan turib amalga oshmaydi.

Inson o‘zini va borliqning tushunishidagi “nom” va “nomga ega emas” yoki identlikdagi “men” va “men emas” lar ikki qutbli binar tafakkurga sabab bo’ladi. Borliqdagi ma’lumotlarning bu kabi o’zlashtirilishi, o’zgacha anglangan mantiqni shakllantirgan. Bu jarayonlar boshqa tizimlarda ham qarama – qarshi xususiyatlar mavjud degan umumiy mantiqqa sabab bo‘lgan. Hamma narsani qarama – qarshisi (negativi) bor tamoili keyinchalik dunyo bir tizimda ishlashi kabi deterministik qarashlarga ham sabab bo‘lgan deyish mumkin. Tafakkurning reflektiv tabiati sababli, inson ushbu tushunchalarning negatsiyasini, ya’ni real olamda mavjud bo‘lмаган, ammo mantiqan asosli alternativ shakllarini yaratishga ham qodir.

“Ontologik negatsiya bu — mavjud bo‘lgan tushunchaning strukturaviy yoki semantik asosida inkor qilinadigan, lekin yangi nazariy modelga asos bo‘ladigan konstruksiya hosil qilish jarayonidir. Bu yondashuvda tushunchaning barcha semantik atributlari olinib, ularning inkor etuvchi yoki zid funksional qiymatlari aniqlanadi”⁵.

Ko’rinib turganidek negatsiya avval mavjud bo‘lмаган yangi, real olamda mavjud bo‘lмаган yoki hech qachon mavjud bo‘lmaydigan tizimlarni ham tafakkurda realizatsiya qilishga qodir.

Masalan: erkinlik so‘zida negatsiya erkin bo‘lмаган xususiyatlarni ko’rib chiqadi, determinizm, tanlov, javobgarlik, itoat, tutqunlik, barqarorlik va b.

Semiogenez esa reflektiv tafakkur ta’sirida vujudga kelgan negatsiyalarni ziddi orqali belgilarni yig’ib yangi belgili tizimni xosil qilish xisoblanadi.


Falsafiy Ontologik Negatsiya va Reflektiv Tafakkur yordamida semiogenez modeli:

⁴ Derrida, J. (1982). *Margins of Philosophy*. University of Chicago Press, p. 11–12.

⁵ Menke, C. (2018). The Act of Negation: Logical and Ontological. *Zeitschrift für Medien- und Kulturforschung*, 2, 43–57.

1. **Falsafiy tushuncha (T)** — asosiy tahlil ob'ekti.
2. **Semantik atributlar** — tushunchaning tarkibiy xususiyatlari.
3. **Ontologik inverterni qo'llash** — atributlar asosida qarama-qarshi mazmun yaratish.
4. **Ontologik alternativa ($\neg T^*$)** — real bo'limgan, lekin mantiqan asosli model.
5. **Semiogenez** — yangi nom va tushuncha hosil qilish.
6. **Reflektiv tafakkur** — T va $\neg T^*$ ni solishtirib, o'z-o'zini anglash.
7. **Falsafiy yaratish** — yangicha tushunchalar sistemasi hosil bo'ladi.

Falsafiy Ontologik Negatsiya va Reflektiv Tafakkur Modeli



Model komponentlari

- **T (Tushuncha):** falsafiy kategoriya (masalan, adolat)
- **A (Atributlar):** semantik, gnoseologik, aksilogik tarkibiy qismlar
- $\neg T$ (*Alternativa*):* real olamda mavjud bo'limgan, lekin aqliy asosli model
- **Sg (Semiogenez):** tushunchaga yangi nom, metafora yoki struktura berish
- **Reflektiv tafakkur:** T va $\neg T^*$ ni qiyoslab, ularning falsafiy cheklari va imkoniyatlarini tahlil qilish

Jarayon bosqichlari

1. Tushuncha va atributlarini tahlil qilish
2. Har bir atribut uchun invers funksiyani aniqlash
3. Alternativ modelni $\neg T^*$ sifatida ifodalash
4. Semiogenez yo'li bilan yangi nom va semantik mazmun yaratish

5. T va $\neg T^*$ ni reflektiv tahlil qilish orqali falsafiy ijodga yo‘l ochish

Mazkur model orqali falsafiy tafakkur uchun yangi konsepsiylar yaratish, mavjud tushunchalarni chuqurroq tahlil qilish, sun’iy intellekt uchun falsafiy bilish algoritmlarini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Semiogenez nuqtai nazardan odatda ma’nolar barqaror yoki to’liq (fatal) bo’lmaydi. Ular boshqalaridan ajratilib xosil bo‘ladi va keyingilari uchun zanjir vazufasini bajaradi.

Gilles Deleuze (1925–1995) — fransuz faylasufi bo‘lib, u tushunchalar odatda inkori yoki rad etilishidan ko‘ra farqlanish orqali shakllanadi deya ta’kidlaydi. Narsa, buyum va hodisadagi differensial tafovutlar yangi tushunchalarni shakllantriradi. Keyingisi oldingilarini takrorlamasa va oldingilaridan farqlansa u yangi tashkiliy tafovutlar sababli semiogenetik algoritmda yangi tushunchalar keyingi cheksiz variatsiyalar uchun asos vazifasini bajaradi. Farqlanishdagi konstruksiyalar, inkordagi konstruksiyalarga nisbatan cheksiz davom etishi mumkin. Inkordagi negatsiya ya’ni tushunchaning real olamdagи mavjud bo’lmagan inkori, farqlanishdagi negatsiyalarini ya’ni cheksiz negatsiyalarini tashkil etuvchi, ontologik polimorfizmni keltirib chiqaradi.

Har bir falsafiy tushuncha bir emas, balki ko‘p yoki cheksiz ontologik alternativalarga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa tushunchaning birlamchi emas, balki relatsion va kontekstual bo‘lganligini anglatadi. Masalan, “Adolat” tushunchasi turli madaniyatlarda, tarixiy davrlarda va gnoseologik pozitsiyalarda turlicha inkor etiladi: uni hokimiyat sanksiyasi, ilohiy konvensiya kabi modellar bilan almashtirish mumkin.

“Adolat relatsion va kontekstual tushuncha sifatida qaraladi – Turli tarixiy sharoit va epistemologik pozitsiyalardaadolat hokimiyat legitimatsiyasi, ilohiy qonunlar, jamiyat ehtiyojlari bilan almashtiriladi. Bu “adl”ni avtonom kontsept emas, balki o‘zaro munosabat va dinamik tushuncha sifatida talqin qiladi”⁶.

Ushbu ontologik polimorfizm – tafakkurning semiotik evolyutsiyasi orqali amalga oshadi: tushunchalar doimiy ravishda o‘zlarining yangi-yangi inkor variantlarini ishlab chiqaradi.

Negatsiya jarayonining algoritmik va falsafiy mohiyatining ahamiyatli jihat shundaki ongdagi ushbu jarayon huddi ochiq tizimlardagi faoliyatlar singari tashqi o‘zgaruvchilarga doimo ochiq xisoblanadi. Aynan shu ochiqligi, doimiy

⁶ Lang, P. (2024). Formal and Essential Characteristics of Justice (Historical and Legal Research). Legal education and science. <https://doi.org/10.18572/1813-1190-2024-9-35-40>. Marcelo, G. (2014). The Conflict Between the Fundamental, the Universal, and the Historical: Ricœur on Justice and Plurality. Philosophy Today, 58, 645-664. <https://doi.org/10.5840/philtoday20148732>.

tashqaridan turib o’zini idrok qilishga yo’l ochadi. Tashqaridagi ma’lumotlardan tuzilgan ong doimo o’zgarishda, ushbu o’zgarishning o’zida turib o’zini idrok qila oladi va shu bilan 0 va yo’q pozitsiyadan turib o’zini inkor qila oladi.

MUHOKAMA

Ong o’ziga aniq qiymat va sifatlar bermaydi. Agar u o’zini aniq belgilasa, u men mana shunday tizimman deya xulosa qiladida to’xtaydi, o’zini aniq identifikatsiya qiladi. Shunda uning ochiqligi tugaydi va yopiladi. Endi u yangilikka ochiq emas, balki shunchaki o’zining bugungacha bo’lgan fikrlash va o’zini tashkil qilish algoritmini yangilamaydi, xuddi sun’iy intellekt tizimlari kabi. Kompyuter dasturlari ham xuddi shu tarzda yopiq ishlaydi.

Inson tafakkuri esa bunday emas, u doim o’zi bo’lmagan narsa sifatida o’zini qayta tashkil etaveradi. Ya’ni u 0 (yo’q) qiymatga o’tib turib o’zini inkor qilib turadi. Ushbu paradoksal jihat shundan iboratki ong har doim o’zini, hali tashkil etilmagan va o’zi bo’lmagan mavhumlik sifatida o’zini inkor etadi. Ya’ni mening inkorimdan keyingi qiyofam hali shakllanmagan, lekin endilikda shakllanyotgan yangi, noma’lum va 0 (nol) qiymatdagi “men”, xozirgi “men”ni inkor qilib turadi. Bugungi mavjud bo’lgan shaxsiyat, identlik yoki “men”ni, ertaga mavjud bo’lishi mumkin bo’lgan yoki bo’lmagan yo’qlikdan qarz olib turib inkor qilib turadi. Shunga ko’ra ong mavjud vaziatda o’zini hali topmay turib, o’zi bo’lmagan narsa sifatida idrok qilinib mavjud vaziatdan inkor orqali chiqib ketadi. Bu jarayonni erkinlik deyish ham mumkin chunki u qolip va stereotiplardan chiqa oladi.

Doimiy rad etish jarayonidagi ushbu o’zlikni anglash, to’xtamasligi, identifikatsiya tugamasligi shuningdek rad etish erkin bo’lishi mumkin, ammo keyingi bosqichdagi negatsiya, ya’ni yangi alternativalar yoki real olamda mavjud bo’lmagan konstruklar ham ko’pincha oldin anglangan dunyoning mantig’iga ko’ra quriladi. Chunki qurilish jarayonining o’zi binar edi. Rad etishdagi erkinlik, o’zini qayta tashkil qilishdagi negatsion konstruksiya yoki alternativalar tufayli ya’na so’nadi. Yangi muqobillarni tanlash orqali erkinlik ya’na matritsaga qaytadi. Tafakkurdagi erkinlik keyingi safar rad etishda qayta tug’iladi, negatsiya sifatida yoyiladi, keng quloch yozadi va semiogenez algoritmi ya’ni nom berish orqali yana qoliplarga aylanadi.

“Bilmaslik” chuqr pardoksal holat, lekin aynan u kognitiv va aqliy jarayonlarni davom ettiradi. Chunk, ongning o’zini anglashga, o’zini tadqiq qilishga va o’zini bilishga qaratilgan refleksiyasi o’zini identifikatsiya qilish uchun, o’zini belgilash uchun amalga oshadi. Bilish bu to’xtash demakdir. Agar ong o’zini va identligini aniq belgilasa fikrlashdan to’xtaydi. Inson borliqni to’la bilmasligini, o’zidagi ong deya ataladigan tizimning mohiyatini bilmasligini va u to’plagan

bilimlar nisbiy ekanligini tushunadi. Agar buni dasturiy modellashtiradigan bo’lsak, bu ko’pincha mantiqsiz tuzilishga ega bo’ladi. Masalan, inson o’rganadigan bilim nisbiy, o’rganish usuli ham nisbiy ular asosan konvensional(kelishuvga asoslangan) va pragmatikaga asoslangan. Nisbiy tadqiqot va o’rganish metodikasi ham nisbiy natijalar berishi tabiiy shunga qaramay biz xatolardan xoli bo’lmagan bilimlarni yaratamiz. Natijalar to’laqonli aniq emas va yuz foiz olamni tuzilishini bermasada pragmatik jihatdan ular bilim sifatida qabul qilinadi. Aynan ushbu mantiqqa ko’ra ong bilimli yoki bilimsiz bo’lishga majbur emas. Uning faoliyat turli tizimlarni shunchaki bir – biridan farqlab strukturaga keltiradi va doim boshqa yerda mavjud bo’lmagan va faqat o’zida mavjud bo’lgan tizimlarni yaratishda ham davom etadi. U o’zini aniq belgilamaydi va belgilashi faoliyatini susaytirishi mumkin.

Agar sun’iy intellekt (SI) — biladigan, lekin mavjud bo’lmagan sub’ekt bo’lsa, inson esa bilmaydigan, lekin mavjud bo’lgan sub’ekt, unda bilimsiz mavjudlikni ong deyish mumkinmi. Ha, albatta bilimsiz mavjudlikni ham ong deyish mumkin, faqat u vaqtinchalik refleksiyalanmagan va avtonom holatda bo’ladi. Ya’ni u axborot va faoliyatini ichki va tashqi mohiyatiga qaramasdan refleksiyasiz bajaradi.

“Sun’iy intellekt refleksiya va ongni alohida ko’radi – Tadqiqotlarda AI tizimlarida “bilish” mavjud bo’lsa-da, bu refleksiyasiz va mavjudliksiz holat bo’lishi mumkinligi muhokama qilingan. Bu, ong va mavjudlikning farqlanishi mumkinligini ko’rsatadi”⁷.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan holatga ko’ra ya’ni doim o’zida olib yuruvchi “nol”, “bo’sh”, yoki “yo’q” qiymatga ko’ra bilmaslik bu ongga xos xolat. Chunki ong bilmasligini bilgani, o’zining bilim darajasi nisbiyligini tushungani va o’zini topmagan yoki belgilamaganligi uchun ham bilishda davom etadi. Sun’iy intellekt butun olamni raqamli tushungani yoki turli xisoblashlarni aniq va tez bajargani bilan, o’z bilimlari dunyonи to’liq tushunishga yetmasligini anglamaydi. SI bilmasligini, bilmaydi, o’zini inkor qila olmaydi, o’z doirasidan tashqariga chiqa olmaydi. Shunga ko’ra Inson — bu bilmaydigan, lekin mavjud bo’lgan subyekt. SI — bu biladigan, ammo mavjud bo’lmagan konstruktsiya. Ong — bu aynan “bilmaydigan, ammo bilishga ochiq va o’z mavjudligini anglaydigan” holatdir.

Ongning o’zini rad etish orqali o’zini belgilashi cheksiz amalga oshmaydi. Chunki to’liq o’zini rad etish mavjudlik yoki xarakat algoritmlarni butunlay yo’qotadi. Shuningdek cheksiz rad etish regressiyaga olib keladi va faoliyat umuman boshlanmasligi mumkin. Men bu emasman deyuvchi, va yangi menga

⁷ Piletsky, E. (2019). Consciousness and Unconsciousness of Artificial Intelligence. Future Human Image. <https://doi.org/10.29202/FHI/11/7>.

aylanuvchi shuningdek cheksiz ravishda “men” bo’luvchi va “men”ni inkor qiluvchi markaz zarur. Va bu markaz shunday pragmatik markaz-ki, u doim o’zini inkor qilishi kerak va ushbu inkor orqali o’zi ham yo’q bo’lib ketmasligi kerak. Ushbu pragmatik markaz o’zining mavjudligi uchun mantiqsiz ishlashi lozim. Xulosaga ko’ra ongning cheksiz regressiyasi, ya’ni doim o’zini inkor qilishi, faoliyatni to’xtatadi shuningdek o’zini aniq belgilashi ham faoliyatni to’xtatadi. Doimiy o’zini o’zi inkor qilishi uchun, o’zi bo’lmagan yoki inkoriy mantiqdan yuqoriroq markaz zarur. Aynan shunday markaz ongda doimo faoliyat yuritadi va ongli xarakatlarni nazorat qiladi. Ushbu markaz identitet yadrosini tashkil qilsada ushbu yadroni qayta inkor qilib, yangicha tuzishda davom etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. https://archive.org/details/BeingAndNothingness_201606/page/n5/mode/2up
2. Lotman, Y. M. (2010). *Culture and Explosion* (W. Clark, Trans.). Walter de Gruyter. ISBN: 978-3110218466.
3. Sharov, A., & Tønnessen, M. (2021). Semiogenesis. Biosemiotics. https://doi.org/10.1007/978-3-030-89484-9_8.
4. Derrida, J. (1982). *Margins of Philosophy*. University of Chicago Press, p. 11–12.
5. Menke, C. (2018). The Act of Negation: Logical and Ontological. *Zeitschrift für Medien- und Kulturforschung*, 2, 43–57.
6. Piletsky, E. (2019). Consciousness and Unconsciousness of Artificial Intelligence. Future Human Image. <https://doi.org/10.29202/FHI/11/7>.
7. Lang, P. (2024). Formal and Essential Characteristics of Justice (Historical and Legal Research). Legal education and science. <https://doi.org/10.18572/1813-1190-2024-9-35-40>.
8. Marcelo, G. (2014). The Conflict Between the Fundamental, the Universal, and the Historical: Ricœur on Justice and Plurality. *Philosophy Today*, 58, 645–664. <https://doi.org/10.5840/philtoday20148732>.